

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA BARKAMOL AVLOD MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA ISLOM DININING AHAMIYATI

Turobova Zulfizar Ulug'bek qizi

*Buxoro davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni
o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari) mutaxassisligining
2-bosqich magistranti*

Zulfizar580@gmail.com [Tel:+998905141775](tel:+998905141775)

Annotatsiya: Maqolada yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda islom dinining tutgan o'rni, ta'lim-tarbiyada islom dinining ahamiyati haqida fikrlar yuritilgan. Shuningdek, barkamol avlod ongida diniy bag'rikenglik, hamjihatlik, vijdon erkinligiga doir tushunchalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: islom, bag'rikenglik, hamjihatlik, vijdon erkinligi, ma'rifat va diniy bag'rikenglik rezolyutsiyasi, ma'naviyat, barkamol avlod.

ЗНАЧЕНИЕ ИСЛАМА В ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНОСТИ СОВЕРШЕННОГО ПОКОЛЕНИЯ В РАЗВИТИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: В статье рассматривается роль ислама в формировании духовности молодежи и значение ислама в образовании. Также в сознании развитого поколения находят отражение особенности формирования представлений о религиозной толерантности, солидарности, свободе совести.

Ключевые слова: ислам, толерантность, солидарность, свобода совести, резолюция о просвещении и религиозной толерантности, духовность, гармоничное поколение.

THE IMPORTANCE OF ISLAM IN FORMING THE SPIRITUALITY OF A PERFECT GENERATION IN THE DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN

Abstract: The article discusses the role of Islam in the formation of youth spirituality, the importance of Islam in education. It also reflects the specific features of the formation of concepts of religious tolerance, solidarity, and freedom of conscience in the minds of a mature generation.

Keywords: Islam, tolerance, solidarity, freedom of conscience, resolution on enlightenment and religious tolerance, spirituality, mature generation.

XXI asr fan, texnika va texnologiyalarda misli ko'rilmagan o'zgarishlarga sabab bo'ldi, bu hol yangilanishlar asri sifatida bashariyatning yangi tarixini boshlab berdi. Globallashuv jarayoni zamonaviy ilm-fan yutuqlari, texnika va texnologiya xalqaro

axborot almashinuvining jadal rivoji bilan o‘zaro aloqadorlikda yuzaga keladi. Shu bilan birgalikda yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish, millatlar o‘rtasida integratsiya jarayonlari shakllanganlarini ko‘rishimiz mumkin.

Yangi O‘zbekiston sharoitida kuchli, bilimli, aqlli, dono, mustaqil fikrli barkamol avlodni voyaga yetkazish, tarbiyalash va bunga hissa qo‘shish, mas’uliyat bilan yondashish ta’lim sohasi mutaxassislarining vazifasi, burchidir.

Islom dini yoshlarga nafaqat e’tiqodli bo‘lishni, balki odob-axloqli, ilmga chanqoq va boshqalarga manfaat keltiradigan inson bo‘lishni o‘rgatadi. Buyuk mutafakkir Imom G‘azzoliy ta’kidlaganidek: *“Inson kamolotga faqat ilmu ma’rifat orqali erishadi”*. Qur’on va hadislar orqali o‘rgatilgan sabr-toqat, vatanparvarlik, ota-onaga hurmat, ilm olish kabi tamoyillar yoshlarning axloqiy asoslarini mustahkamlaydi.

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy barqarorlikni saqlash, millatlararo totuvlik va dinlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlash, odamlarning diniy erkinlik, o‘zaro do‘stona munosabatalarini har tomonlama himoya qilish hozirgi davrdagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Inson kamoloti avvalo uning bilim va tafakkur darajasi bilan belgilanadi. Islom dini asrlar davomida insonlarni chuqur bilim olish, ilm-fan sirlarini puxta egallash, o‘zlashtirilgan bilimlar asosida ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etgan. Buyuk bobomiz Alisher Navoiy bu boqiy baytlarda olam yuzi aqlidrok, uyg‘oq qalb, bunyodkor ruh bilan obod bo‘lishi, olam eli esa, yaxshi xulq, yuksak insoniy fazilatlar, ma’naviy qadriyatlar asosida shod-u xurram yashashi mumkinligini ta’kidlamoqda. Ulug‘ mutafakkir siz-u bizga xitob qilib, *“Siz shunday jamiyat barpo etingki, unda aqlu idrok Vatan yuzini obod qiluvchi, xulq-u tarbiya jamiyat ahliga hamjixatlik asosida shod-u xurramlik baxsh etuvchi kuchga aylansin”*, deyayotganday. Davlatimiz rahbarining *“Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni, ruhi ma’naviyatdir”* degan so‘zlari mohiyatidagi uyg‘onish nafasi Hazrat Navoiy da‘vatlariga mohiyatan uyg‘un bo‘lib, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga azm-u shijoat bilan kirishgan xalqimiz uchun tarbiya, yaxshi xulq, aql-idrok, bilim, ma’naviyat naqadar tengsiz qudrat va ruhiy manba ekanligini yana bir bor anglatdi. Demak, yuksak ma’naviyat bilan jamiyat hayotining tanasi bo‘lgan iqtisodiyot vujudiga jon, ruh kiradi, unga tiriklik, tengsiz yaratuvchi qudrat baxsh etiladi.

Bizning xalqimiz ham qadimdan ma’rifatga oshno va dunyo tamadduniga mislsiz hissa qo‘shgan ulamolarni tarbiyalab chiqargan xalqdir. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Mahmud Zamaxshariy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy kabi islom ulamolari, Abu Ali ibn Sino, Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy kabi qomusiy olimlar tomonidan yaratilgan asarlar ming yillardan beri dunyo ahli tomonidan o‘qib, o‘rganib kelinmoqda. Bizning ham porloq kelajagimiz faqat va faqat kuchli ilm vositasidagina amalga oshadi. O‘qish va o‘rganishdek sharaflilik va lazzatli narsa yo‘q.

Inson bilimi bilan qadrlanadi. Hazrati Odam Ato alayhissalomni farishtalardan ham yuksak maqomga ko'targan sir unga berilgan ilmida edi.

Yurtimizda islom diniga e'tiqod qo'ygan dindorlar miqdori, nufuzi, jamiyat hayotidagi o'rni oshib borayotganligi tufayli mazkur texnologiyaga ehtiyoj o'sib boradi. Din azaldan tartibni, halollikni yoqtiradi, demak, mamlakatimizda milliy taraqqiyotni ta'minlash yo'lida to'siq bo'lgan korrupsiyani jilovlash, temir intizomni o'rnatish va adolatning tantana qilishida (sohibqiron Amir Temur bobomiz shu yo'l orqali adolat bayrog'ini ushlab, tarixga o'zining nomini muhrladi) Islom tartib-qoidalari nihoyatda katta rol o'ynaydi. Bugungi yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasi holatiga ob'ektiv baho berib, Naqshbandiyning mehnat etikasi ta'limotini jamiyat hayotiga, davlat va nodavlat tuzilmalariga joriy qilish mexanizmi mukammal ishlansa, biz ota-bobolarimiz boshlab bergan Uyg'onish hodisasini munosib davom ettirish sharoitini qo'lga kiritamiz! G'arb texnologiyalariga ko'rko'rona ergashsak, vaziyat qo'ldan chiqib ketadi. Biz yana begona ta'lim va tarbiyaga qaram bo'lib, texnologiyalarga muhtoj, o'zimiz o'zbek, ammo qarashlarimiz g'arbniki, tilimiz baynalmilal, yashash tarzimiz qorishmadan iborat jo'n odamga aylanamiz. Din – jamiyat va inson hayotida, shubhasiz, katta o'rinni egallaydi. Din – e'tiqod, to'g'ri yashash yo'lini ko'rsatadi. Din – haq yo'li demak. U – korrupsiyaga, aldash va aldanish, birovning molini o'g'irlash, maddohlik va muttahamgarchilikni yoqtirmaydi¹.

Mamlakatimizda yangi taraqqiyot bosqichida ma'naviyatni shakllantirish borasida ulug'vor ishlar amalga oshirildi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning "Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim"²,– degan fikrlardan kelib chiqib bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun jiddiy e'tibor berilayotganligini anglaymiz .

Mazkur nuqtai nazardan, noyob ilmiy-ma'naviy meroslardan biri islom dinidir. Hozirgi davrda ma'naviyatni mustahkamlashda insoniyatning tarixiy tajribasi tomonidan ishlab chiqilgan dunyoviy qadriyatlar va maqsadlarni targ'ib qilgan. Bag'rikenglikning jamiyat hayotidagi ahamiyati va inson kamolotidagi o'rni haqida o'z davrining buyuk allomalari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat va Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarini, targ'ibotlarini keltirishimiz mumkin. Beruniyning "Hindiston" asarida xalqlar do'st, ittifoq bo'lib yashashlari lozimligi ta'kidlab o'tilsa, Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida insonlar bir biri bilan hamkorlik qilishi

¹ U.Muhammadiyev. Ilmdan boshqa najot yo'q. Toshkent, —Mumtoz so'zi nashriyoti, 2019 yil 5-b.

² Asatulloev A.A. Abdurahmon Toshkandiy ijodining Turkiston ma'naviy-axloqiy hayotidagi o'zgarishlarga ta'siri. "Zamonaviy targ'ibot texnologiyalari va ma'naviyma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari": Respublika Ilmiy-Amaliy Anjumani Materiallari. Toshkent: MUXR PRESS- Nashriyoti, 2024. 59-b.

afzal ko‘rilgan. Barcha manbalar insonlarni hamjihatlikka, ittifoq bo‘lib, hech qanday urushlarsiz tinch yashashga targ‘ib etadi³.

Biz ijtimoiy - demografik omillarga tayangan holda bag‘rikenglikni bir qator sohalarga bo‘lib o‘rganamiz.

1. Siyosiy bag‘rikenglik - bunda siyosiy partiyalar, turli nodavlat tashkilotlar, jamoat birlashmalari o‘rtasidagi o‘zaro munozarali, toqatli bo‘lish nazarda tutiladi.

2. Madaniy bag‘rikenglik - Boshqa xalqlar madaniyatiga qiziqqonlik qilib urf-odatlarariga behurmatlik qilib qo‘ymasdan, o‘zga madaniyatlarga hurmat – e‘tibor bilan qarashga targ‘ib etadi.

3. Diniy bag‘rikenglik - Turli dinga e‘tiqod qiluvchi insonlar, konfessiyalar o‘rtasida hurmat ruhini singdirish hisoblanadi.

4. Irqiy bag‘rikenglik - Bunda o‘zlarini yagona “oliy irq” hisoblab, boshqalarga past nazar bilan qarash, terisining rangidan kelib chiqib munosabatda bo‘lishni oldini olishga qaratilgan soha.

5. Jo‘g‘rofiy bag‘rikenglik - Turli hududlarda, mintaqalarda istiqomat qiluvchi kishilarning bir-birlarini sharoitlarini kamsitmaslik, do‘stona munosabatga chorlovchi, yorug‘ olamda yashayotgan har bir inson uchun ona zaminning yerlari bir xildagi to‘shak, musaffo osmon esa hamma uchun moviy ko‘rpa ekanini eslatuvchi sohalardan biridir.

6. Tabaqaviy bag‘rikenglik - bu har bir zamonda ham eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanib kelingan. Uning asosiy vazifasi jamiyatning turli darajadagi tabaqalar o‘rtasida hurmat -etibor munosabatini saqlab qolishga qaratilgan.

7. Jinslararo bag‘rikenglik - bu holat gender tenglikda ham o‘z ifodasini topgan bo‘lib, qarama - qarshi jins vakillari o‘rtasida do‘stona munosabat uyg‘otishni tushunishimiz mumkin.

8. Yosh xususiyatlari aro bag‘rikenglik - Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l kabi xalq maqoli ushbu sohaga misol bo‘la oladi va bunda ko‘zlangan asosiy maqsad o‘zaro yosh xususiyatlari bilan farqlanuvchilar o‘rtasida kelishuvni yo‘lga qo‘yish⁴.

Butun O‘zbekiston diniy bag‘rikenglik (tolerantlik) va dinlararo murosa borasida faqat MDH davlatlariga emas, balki butun dunyoga namuna bo‘lmoqda. Bu haqda Moskva va Butunrus Patriarxi Aleksey II, AQSh senatori Xillari Klinton xonim, AQShning sobiq davlat kotibi Madlen Olb-rayt va Iordaniya qirolligi shahzodasi Xasan ben Talol yurtimizga ziyoratlari vaqtida ta’kidlab o‘tganlar. Albatta, xalqimizga azaldan xos bo‘lgan bu xislat o‘zining uzoq tarixiga ega. So‘nggi yillarda butun dunyo, shu jumladan, mintaqamizda kuchayib borayotgan diniy

³ Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yilning 30-sentabr kuni O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.

⁴ D.B Axmadjonov “Bag‘rikenglik fenomeni ijtimoiy –madaniy muammo sifatida” Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali 2022-yil 7-son.

aqidaparastlik va jangarilik islomning asl mohiyati bo'lgan bag'rikenglikka zid bo'lgan harakatlarga sabab bo'lmoqda. Bu harakat va g'arazli oqimlarning nomlari va shiorlari turlicha bo'lishiga qaramay, maqsadlari bir — dindan niqob sifatida foydalanib, davlat siyosatiga aralashish, hokimiyatni qo'lga kiritishdir.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 5-iyulda qabul qilingan O'RQ-699-sonli "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni barkamol avlod ma'naviyatini shakllantirishda islom dinining ahamiyati oshirishga ahamiyatlidir. Barkamol avlodni shakllantirishda dunyoviy ilmlar bilan bir qatorda diniy ilmlarni yoshlarga o'rgatish kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'biri bilan aytganda, O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida o'z an'alariga doimo sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e'tibor qaratiladi. Bu – bizning eng katta boyligimiz va uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir⁵.

Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans g'oyasi ilm-fan va dinning uyg'unligiga asoslanadi. Ilm va ma'rifatni din bilan uyg'unlashtirish orqali jamiyatda ma'naviy muhitni mustahkamlash imkoniyati kengaymoqda. Alisher Navoiy o'z asarlarida ilm va e'tiqodning o'zaro bog'liqligini alohida ta'kidlab, "Ilmsiz din bo'lmas, dinsiz ilm yo'q" deya yozgan edi⁶.

Prezident esa "Rivojlanishning yangi bosqichiga o'tish uchun biz yoshlarni din va ilm-fanga muhabbat ruhida tarbiyalashimiz zarur" deya ilm-ma'rifatning kelajak avlod hayotidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatadi⁷.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Yangi O'zbekiston taraqqiyotida barkamol avlod ma'naviyatini shakllantirishda islom dinining ahamiyati yuksakdir. Islomiy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va ta'lim jarayonida ularni hisobga olish, yosh avlodni tarbiyalashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kelajak avlodni tarbiyalashda bu qadriyatlarni hisobga olish va ulardan foydalanish, O'zbekistonning ijtimoiy va madaniy taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Mamlakatimiz kelajagi, ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk avlod qo'lida. Shuning uchun, islom dini ta'lim, tarbiya va ijtimoiy faoliyatda ustuvor bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi", Toshkent, 2021, 124-b.
2. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlis palatalariga qilgan Murojatnomasi.

⁵ Sh. A. Usmonov, A. A. Xoldaraliyeva "Talaba yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalashning psixologik tamoillari" Academic Research In Educational Sciences 2021. №7 44

⁶ Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlis palatalariga qilgan Murojatnomasi.

⁷ Alisher Navoiy. Nazm ul-javohir, Toshkent: Fan nashriyoti, 1978, 32-b.

3. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yilning 30-sentabr kuni O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.
4. Zebiniso Ahmadova, Aziz Hakimov Zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yangi o'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari (—Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansga munosib poydevor yaratilmoqda loyihasi doirasida tashkil qilingan Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari) 2021-yil 24-sentyabr.213-b.
5. Imom G'azzoliy. Ihyo ulum ad-din, Bayrut: Dar al-Fikr, 1986. 192-jild, 24-b.
6. U.Muhammadiyev. Ilmdan boshqa najot yo'q. Toshkent, —Mumtoz so'zi nashriyoti, 2019 yil 5-b.
7. Asatulloev A.A. Abdurahmon Toshkandiy ijodining Turkiston ma'naviy-axloqiy hayotidagi o'zgarishlarga ta'siri. "Zamonaviy targ'ibot texnologiyalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari": Respublika Ilmiy-Amaliy Anjumani Materiallari. Toshkent: MUXR PRESS-Nashriyoti, 2024. 59-b.
8. D.B Axmadjonov "Bag'rikenglik fenomeni ijtimoiy –madaniy muammo sifatida" Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali 2022-yil 7-son.
9. Sh. A. Usmonov, A. A. Xoldaraliyeva "Talaba yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalashning psixologik tamoillari" Academic Research In Educational Sciences 2021. №7 44
10. Alisher Navoiy. Nazm ul-javohir, Toshkent: Fan nashriyoti, 1978, 32-b.